

ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDA “VATAN” TIMSOLI

Abdirayimova Lola

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Rus filologiyasi fakulteti talabasi .

Aleksandr Faynberg o‘zbek xalqining ardoqli shoiri . Aleksandr Faynberg aslida rus, ammo shoirni xalqimiz va adabiyot ahli baralla “o‘zi rus, qalbi o‘zbekcha uradigan shoir” – deya e’tirof etadi. Aleksandr Faynberg nomzodini “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoniga berishayotganda , bir shoir u o‘zbek emas deganda “O‘zbekiston xalq shoiri “ va “O‘zbekiston qahramoni” Abdulla Oripov; “Aleksandr Faynberg -- mendan ham o‘zbekroq “ -- degan ekan.

Men esa, Aleksandr Faynberg shaxsini Nodar Dumbadzening “Hellados” asaridagi bosh qahramon Yanguliga o‘xshataman. Nega aynan Yanguli? Yangulining otasi imkon tug‘ilishi bilan o‘z yurtiga otlanadi. Tabiiyki, Yanguli ham otasi bilan borishi kerak. Ammo, vatan - bu tug‘ilib o‘sgan joy emasmi.

Yangulining ham vatani -- u ulg‘aygan diyor. Yangulining vatanga bo‘lgan mehri kemadan sakrab bo‘lsa ham suzib o‘z vataniga qaytishga undaydi. U cho‘kishini bilar edi ,lekin uning qalbi bir zum bo‘lsa ham o‘z vatanidan ayrilishni istamadi. U qaytadi ham, aslida. Uning ruhi shodumon holda o‘z vatani aro kezib yurgandir, balki.

Endi, Aleksandr Faynbergga kelsak, shoirning ham ota-bobolarining yurti Rossiyada Novosibirskda emasmi. Ammo, uning uchun ona vatan u tug‘ilib o‘sgan – O‘zbekiston. U ulg‘aygan chog‘ida ajdodlari yurtiga ketishi mumkin edi, ammo u o‘z yurtini Yangulidek sevdi. Uning qalbi jannatmakon yurtimizga oshufta. Shunga monand xalq ham “ozimizning shoir” –deya e’tirof etgandir sevimli farzandini. Aleksandr Faynbergning she‘rlarida “Vatan” timsoli o‘zgacha namoyon bo‘ladi;

Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim ---

O‘zbekistondir hokim, turobim.

Hoy, Yevropa Seni tanimaymamn ham.

Aleksandr Faynberg betakror shoir, ssenarist, tarjimon bo‘libgina qolmay , balki vatanni sevish, uni ardoqlashda har birimizga yaqqol ibrat ham bo‘la oladi.

Aleksandr Faynberg rus tilida ijod qilgan bo‘lsa ham uning she‘rlarida sharqona ruhiyat go‘zal namoyon bo‘lgan. Uning “Ruboiyot torlari” deb nomlangan she‘rida o‘zbek choyxonasini ,o‘zbek milliy taomi palovni va mehmondo‘st o‘zbek xalqini ta‘riflagan.

Yana bir she‘rida esa, sharq nazmini qalblarga va inson ruhiyatiga orom beriuvchi deya ta‘rifdlagan;

Nazm – navo, nazm – iltijo

Sharqni tinglab nash‘a olursan.

Cho‘ziladi karvondek hijo

Chilim kabi tutab yonursan.

O'zimizning shoir "Issiq quyosh ostidagi uy", "Osmondagi stadion" filmlarining ssenariy muallifi hisoblanadi. "O'zbekiston xalq shoiri", O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg o'zidan boy ijodiy meros qoldirdi. O'zbek shoirlarining ko'plab she'rlarini rus tiliga mohirona tarjima qildi. Ayniqsa, Abdulla Oripovning "Munojot" she'rini har iikala tilni bilgan o'quvchi mutolaa qilib bo'lgach, qaysi tilda o'qidim deya savol berib qolishi hech gap emas. Aleksandr Faynberg o'n beshta sh'eri to'plam muallifi hamdir.

O'zi rus, qalbi esa o'zbekcha uradigan o'zimizning shoirimiz 2009-yilda 14-oktabrda Toshkent shahrida vafot etgan. SHoir "Hellados" asarining bosh qahramoni Yangulidek so'nggi damda ham, o'z vatanidan ayrilmadi.

Aleksandr Faynberg ijodi u vafot etganidan so'ng ham, kata qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Bugun o'zbek xalqi suyukli farzandiga ehtirom sifatida "Adiblar hiyoboni"da haykal o'rnatgan.